

**Jismoniy shaxslar uchun milliy valyutadagi
“Imkon-12” muddatli bank omonati
SHARTNOMASI**

20 __ yil «__» _____ № _____ shahri

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankining _____ filiali (keyingi o‘rinlarda – Bank) boshqaruvchisi _____ Nizom va Ishonchnoma asosida faoliyat yuritib, bir tomondan, va _____ (keyingi o‘rinlarda – Omonatchi), ikkinchi tomondan, mazkur Shartnomani quyidagilar to‘g‘risida tuzdik.

1-§. Shartnoma predmeti

1. Bank Omonatchining _____ (_____) so‘m pul mablag‘ini qabul qildi va uni 20606000..... omonat hisobvarag‘iga omonat shartlariga muvofiq joylashtirdi.

2. Omonatchiga __ seriyali _____-sonli Omonat daftarchasi ochildi va unda yuqorida ko‘rsatilgan hisobvaraqaqa kirim qilingan mablag‘ summasi va boshqa tegishli ma’lumotlar o‘rnatilgan tartibda aks ettirildi.

2-§. Omonat shartlari va hisob-kitoblar tartibi

3. Omonat muddati 12 (o‘n ikki) oy, ya’ni omonatga pul qo‘yilgan sana 20__ yil “__” _____, omonatni qaytarish sanasi 20__ yil “__” _____.

4. Omonatga yilda 365 kun hisobidan yillik 16 (o‘n olti) foiz daromad hisoblanadi.

Ushbu Shartnoma bo‘yicha jalb qilingan omonatning foiz stavkasi uning muddati tugagunga qadar o‘zgarmaydi.

5. Omonat bo‘yicha qo‘shimcha badallar qabul qilinmaydi.

6. Omonat bo‘yicha foiz omonat Bankka qabul qilingan kunning keyingi sanasidan boshlab omonat Omonatchiga qaytariladigan kungacha hisoblanadi.

Omonatchining omonat hisobvarag‘i xatlanganligi oqibatida Bank omonatdagi pul mablag‘idan foydalana olmagan davr uchun foiz hisoblanmaydi.

7. Omonat bo‘yicha foiz Omonatchining xohishiga ko‘ra:

_____ to‘lab beriladi.

(tegishlisini ko‘rsating: har oyda yoki omonat muddati tugagandan so‘ng kapitalizatsiyasiz)

Omonat muddati tugagandan so‘ng omonat omonatchiga qaytariladi.

Agar omonatni qaytarish dam olish yoki bayram kuniga to‘g‘ri kelsa, omonat keyingi bank ish kunida qaytarib beriladi.

8. Omonatchi omonatni muddati tugamasdan qaytarishni talab qilish niyatida bo‘lsa, u bu haqda Bankni omonatni olishni mo‘ljallagan sanadan kamida bir oy oldin ogohlantiradi. Omonatchining talabiga ko‘ra Bank omonatni qaytarib beradi. Bunday holda ushbu Shartnomaning amal qilishi to‘xtatiladi, hisoblangan foizlar bekor qilinadi va to‘lanmaydi. Omonat muddati davomida to‘langan foizlar bo‘lgan bo‘lsa, ular omonat summasidan ushlab qolinadi.

9. Omonatchi omonat muddati tugagandan keyin omonatni qaytarib olmasa, mazkur Shartnoma talab qilib olinguncha saqlanadigan omonat shartlari asosida uzaytirilgan hisoblanadi, keyingi amaliyot kunida uning uchun talab qilib olinguncha saqlanadigan omonat hisobvarag‘i ochiladi. Omonat va u bo‘yicha hisoblangan foizlar, ushbu kundan boshlab, Omonatchining talab qilib olinguncha saqlanadigan omonat hisobvarag‘idagi shaxsiy hisobvaraqaqa o‘tkaziladi.

3-§. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

11. Bank Omonatchidan O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq omonatni rasmiylashtirishda taqdim etilishi zarur bo‘lgan hujjatlarni talab qilish va olish huquqiga ega.

12. Bank quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

a) omonatni, Bankni kamida bir oy oldin ogohlantirgan holda muddatidan oldin qaytarish so‘ralganda, qaytarib berish;

b) omonatni sir saqlash va u bo‘yicha ma‘lumotlarni faqat O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ko‘zda tutilgan hollarda taqdim etish;

v) Omonatchining omonat hisobvarag‘i bo‘yicha amaliyotlar Bank tomonidan to‘xtatib qo‘yilganda, amaliyot to‘xtatilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda Omonatchiga uning omonat hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatish to‘xtatilganligi va uning sababi yuzasidan xabarnoma yuborish;

g) Omonatchining kredit va mikroqarz bo‘yicha qarzdorligini so‘ndirish uchun uning omonat hisobvarag‘idan mablag‘ Bank tomonidan Omonatchining topshirig‘isiz hisobdan chiqarilganda, mablag‘ hisobdan chiqarilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda Omonatchiga uning omonat hisobvarag‘idan qancha miqdordagi mablag‘ qanday sababga asosan va kimning foydasiga chiqarilganligini ko‘rsatgan holda xabarnoma yuborish.

13. Omonatchi quyidagi huquqlarga ega:

a) omonatni ishonchli vakili orqali ham tasarruf etish;

b) omonatni O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq har qanday shaxsga vasiyat qilish.

14. Omonatchi quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

a) pasport ma‘lumotlari va ro‘yxatdan o‘tgan joyi o‘zgarganda o‘zgarish sanasidan boshlab 10 kun ichida Bankka yozma xabar berish;

b) Bank tomonidan O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq so‘ralgan barcha hujjatlarni Bankka taqdim etish.

4-§. Tomonlarning javobgarligi

15. Tomonlar mazkur Shartnoma shartlarini bajarmaganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

5-§. Alohida shartlar

16. Ushbu Shartnoma omonat summasi Bankka qabul qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi.

16-1. Omonatning qaytarilishi O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to‘g‘risida” qonuniga muvofiq kafolatlanadi.

16-2. Mazkur Shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari normalari qo‘llaniladi.

16-3. Mazkur Shartnoma 12-bandining “v” va “g” kichik bandlarida nazarda tutilgan xabarnomalar Omonatchiga _____

(Omonatchi tegishlisini tanlaydi: shaxsan topshirish, pochta orqali jo‘natish, elektron pochtdan jo‘natish, mobil telefoniga SMS yuborish, mobil telefoniga telegram kanali orqali jo‘natish) orqali topshiriladi. Omonatchi xabarnoma yetkazish usulini Bankka shaxsan yoki pochta orqali yozma ariza taqdim etish yo‘li bilan o‘zgartirish huquqiga ega. Bunda Omonatchidan qabul qilingan ariza Bank tomonidan uning omonat hisobvarag‘i bo‘yicha yig‘majildida saqlanadi.

Xabarnomani Omonatchiga yetkazish usuli o‘zgarganligi munosabati bilan mazkur Shartnomaga o‘zgartirish kiritish talab etilmaydi.

16-4. Bank mazkur shartnoma shartlariga Omonatchining huquq va qonuniy manfaatlariga daxl qiladigan o‘zgartirishlarni bir tomonlama kiritishga haqli emas.

17. Tomonlar barcha kelishmovchilik va nizolarni muzakora yo‘li bilan hal etadi. Muzakora natijasida tomonlar o‘zaro kelishuvga erisha olmagan taqdirda nizo O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq sudda ko‘rib chiqiladi.

18. Ushbu Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo‘lgan ikki nus’hada tuzildi, uning bir nus’hasi Bankda, ikkinchi nus’hasi Omonatchida saqlanadi.

6-§. Tomonlarning pochta manzillari va rekvizitlari

Bank:	Omonatchi:
Manzili: _____	Manzili: _____
Tel.: _____ Faks: _____	Telefon: _____
Bank kodi: _____	Tug‘ilgan sanasi: _____
Bank hisobvarag‘i: _____	STIR: _____
STIR: _____	Pasport: seriya _____ № _____
Boshqaruvchi: _____	Qachon va kim tomonidan berilgan _____
_____	_____
Muhr	(imzo)